

MAKTAB O'QITUVCHILARING TASHABBUSKOR VA IJODKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17809063>

Soliyev Oybek Farhodjonovich

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi

"Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari"

kafedrası mudiri:

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'qituvchilar mustaqil, ijodkor, faol, tashabbuskor, foyda olishga qodir, g'oyalarni taklif qilish va ishlab chiqish, noan'anaviy yechimlarni topish bo'yicha ma'lumotlar beriladi. Buni o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvsiz amalga oshirish mumkin emas.

Kalit so'zlar

tashabbuskor, kreativ, tendensiya, konstruktiv, integrativ.

Аннотация

В данной статье представлена информация о том, насколько преподаватели независимы, креативны, активны, инициативны, умеют приносить прибыль, предлагать и развивать идеи, находить нетрадиционные решения. Это невозможно сделать без личностно-ориентированного подхода к обучению.

Ключевые слова

инициативный, творческий, тенденциозный, конструктивный, интегративный.

Abstract

This article provides information on how teachers are independent, creative, active, proactive, able to profit, propose and develop ideas, and find non-traditional solutions. This cannot be done without a person-centered approach to teaching.

Key words

initiative, creative, tendency, constructive, integrative.

Pedagog xodimning kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, uning xavfsizligi va

farovonligini ta'minlash hamda barkamol avlodni voyaga etkazishga qaratilgandir. mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingi qisqa vaqt ichida bosib o'tgan taraqqiyot yo'li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va turmushda ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim subyekti bo'lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim masalasi ahamiyatiga ega. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublarni bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining faoliyati shaxsni tarbiyalash jarayonida ta'lim-tarbiya olish sharoitlarini yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish va qobiliyatlarini ochish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim muassasasi o'qituvchisining malakasi maxsus va pedagogik fanlar bilan yoritiladigan ikki qirraga ega bo'lishi lozim va u doimo "Nima uchun o'qitish kerak?", "Qanday o'qitish kerak?" degan savollarga javob topishi zarur. Bu javoblar pedagogika fanining asosiy qoidalari va qonuniyatlariga mos holda talqin qilinishi, shuningdek, ta'lim xususiyatlari e'tiborga olingan bilimlarga asoslangan bo'lishi lozim. Pedagogikaning muhim muammolaridan biri, o'qituvchining mutaxassisligi va faoliyatining asosini tashkil etish shart bo'lgan pedagogik jarayon nazariyasini ishlab chiqishdir. Pedagoglar mutaxassislik bo'yicha mavjud bilimlaridan tashqari o'quv jarayoniga qadam qo'yar ekanlar, pedagogik va psixologik bilimlar, texnologiya va o'qitish metodikalariga doir zarur bilimlarni egallagan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham pedagoglarning malakasini oshirishda: - o'qitish jarayoninig samaradorligini ta'minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish; - ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, gumanitar bilimlarni anglashga yo'naltirilgan yangi kasbiy tafakkurni shakllantirish; - o'qituvchi faoliyatining metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlar tizimini egallash; - o'qituvchilarning kasbiy faoliyatlariga yaqinlashtirilgan uslublarni tizimi sifatidagi o'qitish texnologiyasini egallash masalalari asosiy, deb belgilanadi. Zamonaviy o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar. O'qituvchilar o'zlari o'qitayotgan o'quvchilarining ruhiyatlariga mos ravishda muloqotda bo'la

olish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llay olishi kerak. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida birgina texnologiyaga asoslangan o'qitish uchramaydi. Odatda, o'qitishda bir necha texnologiyalarning elementlari birdaniga qo'llaniladi, chunki pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini to'liqligicha egallovchi loyiha, yaxlitlik, natija, ya'ni o'quv jarayonini inson va texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq maqsad, natijaga yo'naltirilgan jarayondir.

Umumiy o'rta ta'lim tizimiga qo'yiladigan talablardan biri rivojlanayotgan jamiyatga tanlangan vaziyatda mustaqil ravishda mas'uliyatli qarorlar qabul qila oladigan, ularning oqibatlarini bashorat qila oladigan, hamkorlik qilishga qodir, kreativligi bilan ajralib turadigan, tashabbuskor mutaxassislarni tayyorlash. Ta'limning asosiy maqsadi – bu mehnat bozorida raqobatbardosh, o'z kasbini yaxshi biladigan va tegishli faoliyat sohalariga yo'naltirilgan malakali mutaxassisni tayyorlash, o'z mutaxassisligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ish, doimiy kasbiy o'sishga, o'zini-o'zi doimo rivojlantirib borishi muhimdir. Mutaxassislarni tayyorlashga qo'yiladigan talablar shuni ko'rsatadiki, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati va hayotining muvaffaqiyati va samaradorligi ta'lim muassasasining bitiruvchisi kasbiy faoliyatga qanday kirishiga, uning faol ijodiy faoliyatga qanchalik tayyorligiga, ehtiyojlarini shakllantirganiga, o'zini takomillashtirish va kasbiy o'sishga bog'liq hisoblanadi[1]. Faoliyatning zamonaviy sharoitda eng mukammal ko'rinishi – mutaxassisning innovatsion, ijodiy faoliyati. Bugungi kunda mutaxassis ishlab chiqarishda mustaqil, ijodkor, faol, tashabbuskor, foyda olishga qodir, g'oyalarni taklif qilish va ishlab chiqish, noan'anaviy yechimlarni topish muhim. Buni o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvsiz amalga oshirish mumkin emas. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv shaxs sifatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimi markazida turadi. Bunday rivojlanishning o'lchovi ta'limning asosiy natijasi, yaxlitlikda o'qituvchi, tarbiyachi, boshqaruvchi, tarbiyaviy muassasa ish sifati mezoni, deya e'lon qilinadi. Bunday yondashuv ta'lim oluvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, qobiliyatlari, imkoniyatlari, erkinlik va adolatlilik, yaxshilik va baxtning axloqiy kuch-qudratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limdan kuzatilgan maqsad – kishida o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini yo'naltira olish, o'z taqdirini o'zi belgilay olish mexanizmlarini qo'llab – quvvatlash va rivojlantirishki, bular shaxsiy, o'ziga xos obrazning shakllanishi, kishilar, tabiat, madaniyat bilan dialogik o'zaro munosabatlari uchun zarurdir. Shu bilan birga biz o'zining imkoniyatlarini amalga oshirish, deb kishi tomonidan unda mavjud iste'dod va qobiliyatni eng yuqori darajada rivojlantirish jarayoni va natijasini, ularning amaliyotda tatbiq qilinishini tushunamiz. Bu, shuningdek, shaxsning o'z-o'zini doimiy rivojlantirishidan xam

iboratdir. O‘z-o‘zini anglash – shaxsning o‘z harakatlari, muomalalari, intilishlari, manfaatlarini boshqa kishilar manfaatlarini, harakatlari, intilishlari bilan moslashtirishga doimiy intilishidan, o‘zida ijtimoiy manfaatlarga amal qilishni vujudga keltirishdan, bunda o‘zidagi shaxsiy va takrorlanmas o‘ziga xoslikni yo‘qotmaslikdan iborat. O‘z o‘rnini belgilab olish – bu shaxsning ma’naviy, axloqiy o‘rnini shakllanishi, o‘zida “Men”ning o‘rin olishi, o‘ziga, jamiyatdagi, hayotdagi o‘z o‘rniga tushunib etishidan iborat. Oliy maktabda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning amalga oshirilishiga bo‘lgan zaruriyat oliy maktabni isloh qilish yo‘nalishida muhim yo‘nalishlarni ishlab boshqarish jarayonida rasmiylashtirilgan tahlil taraqqiyoti bilan o‘z tasdig‘ini topadi.

Mutaxassislar tayyorlash – bu turli xil omillar ta’sirida yuzaga keladigan uzoq, murakkab, qarama -qarshi jarayon bo‘lib, ularning eng muhimlaridan biri ularni tadqiqot faoliyatiga tayyorlashdir. Mutaxassisning muvaffaqiyatli ilmiy faoliyati nafaqat uning ilmiy tajribasi va kasbiy aloqalari bilan, balki uning ilmiy tajribasi bilan ham belgilanadigan eng katta jarayondir. Bo‘lajak mutaxassislarda mustaqil tadqiqot ishlarini olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish ya’ni, o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlashni o‘rgatish, ma’lumot to‘rlash va tahlil qilish, tizimlashtirish faktlarni umumlashtirish va konferensiyalarda ma’ruzalar bilan qatnashishlarini tashkil etish lozim [2].

O‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ko‘nikmalari mamlakat iqtisodiyoti ehtiyojlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlashning eng samarali usuli, ilmiy salohiyatni faollashtirish va rivojlantirishning samarali vositasi. Zero, bugungi kunda ilm – fan va ishlab chiqarish integratsiyasining tobora kuchayib borayotgan tendensiyasi sharoitida, mustaqil qaror qabul qiladigan tadqiqot va ishlab chiqarish faoliyatlari ayniqsa muhimdir.

Bugungi kunda olib borilayotgan ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyati izlanishlarga aylanib bormoqda. Shuning uchun, hozirgi vaqtda o‘quv jarayoniga bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy tadqiqot va tajriba -konstruktiv faoliyatini joriy etish alohida ahamiyatga ega. raqobatbardosh mutaxassis tadqiqot bilimlari va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi va loyihalashtirishi, mustaqil harakat qilishi, noaniqlik sharoitida, o‘z-o‘zini takomillashtirishga (o‘z-o‘zini bilish), o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini hurmat qilishga, o‘zini o‘zi tartibga solishga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga doimiy intilishi kerak [3]. O‘qitishdagi tadqiqot ta’lim oluvchilar o‘zlari o‘rganayotgan fanlarda qo‘llaniladigan asosiy tadqiqot usullari bilan tanishadilar, hodisalar va jarayonlarni o‘rganish orqali o‘zlari uchun mavjud bo‘lgan tadqiqot usullari elementlarini o‘zlashtiradilar va mustaqil ravishda yangi bilimlarni olish qobiliyatini

egallaydilar. Tadqiqot tamoyilining qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarining bilim qobiliyatini, faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yordam beradi, bilim va bilim faoliyati usullarini o'zlashtirishga qiziqishni oshiradi.

O'qituvchilarining tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining muhim tarkibiy qismi — oldinga qo'yilgan maqsadga erishish va tanlangan vazifalarni hal etish uchun pedagogik faoliyatni tashkil etishni belgilaydigan tamoyillardir.

Maqsadlarni belgilash, o'z faoliyatini yejalashtirish va yejalashtirish, o'z harakatlarini nazorat qilish va baholash, tanqidiy fikrlash va o'z xulosalarini ishlab chiqish qobiliyati bo'lajak o'qituvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilariga ilmiy tadqiqot faoliyati asoslarini o'rgatadigan, bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlashning yangi tizimini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Bo'lajak o'qituvchilarning ko'nikmalarini rivojlantirish davlat ta'lim standartlarida, fan dasturlarida o'z aksini topgan. Hozirgi vaqtda adabiyotlarda tashkilotchilik ko'nikmalari, tadqiqot faoliyati tushunchalari bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud.

o'qituvchilarning tashkilotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, o'qituvchilarni tashkilotchilik faoliyatiga tayyorlash masalalari bo'yicha qator izlanishlar olib borilgan.

B.Xodjayev , M.Urazova [3] tadqiqot ishlarida o'quv loyihasidan foydalanish asosida loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish; tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish; qo'lga kiritiladigan natija uchun o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish masalalarini o'rgangan [105].

Ularning ta'kidlashicha, loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta'lim uslublaridan biri bo'lib, mustaqil tadqiqotchilik ko'nikmasini hosil qilishga yo'naltirilib (muammoning qo'yish, axborotlarni to'rlash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o'tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish), ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta'lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi [3].

Shuningdek, maqolada o'quvchilarda tashkilotchilik ko'nikmalarini shakllantirish yechimi integrativ yondashuvni talab qilib, bunga erishish uchun muammoga turli jihatlardan qarash va buning uchun esa turli fanlardan olingan bilimlar zarurligi, umumiy o'rta ta'lim tizimida tadqiqotchilik elementlari faqat ma'lum bir fan asosida aks etmasdan, fanlararo bog'liqlikda namoyon bo'lishi, chunki tashkilotchilik faoliyati bironta fan doirasida uni to'liq amalga oshirish mumkin emasligi, shu bilan birgalikda turli fanlarni o'qitish jarayonida ijodiy

izlanishni amalga oshirish imkoniyatlari ham bir xil emasligi yoritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Зубкова Ю.О., Хайруллина Э.Р. Обеспечение эффективности практической подготовки будущих специалистов среднего звена в условиях образовательной среды вуза. Вестник оренбургского государственного университета. 2016 г. №12. 13-20 с. УДК: 378. ISSN: 1814-6457
2. Соловьева Н.М., Осипова О.П. Формирование исследовательской компетентности обучающихся с учетом специфики проблем региона / Современное педагогическое образование. 2019 г. №4. 173-178-бет.
3. Ходжаев Б. Уразова М. “Педагогнинг лойиҳалаш маданияти” модули бўйича ўқув –услугий мажмуа. Тошкент – 2016. 161 б.